



IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIORISHNING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI.

Iqtisodiyot 4 -bosqich talabasi .

Maxamatjonov Temur-Malik o'g'li. And.M.I

A.Kamilova katta o'qituvchi And.M.I

Iqtisodiy samaradorlikni oshiorishning hozirgi zamon muammolari va ularni hal etish yo'llari.

Annotatsiya : Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar mavzusida yozilgan maqola quyidagicha bo'ladi:

Bu maqola ishlab chiqarish sohasidagi omillar va ularning iqtisodiy samaradorlikga ta'siri haqida tahlil qiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi rivojlanish, innovatsiyalar, xizmatlar sotishining o'sishi va xalqaro savdo munosabatlari kabi muhim omillar iqtisodiy samaradorlikni ta'sir qiladi. Maqola bu omillarni tahlil qilib, ularning iqtisodiy samaradorlikga ta'sirini o'rganib chiqadi.

Maqola ishlab chiqarish sohasidagi omillar va ularning iqtisodiy samaradorlikga ta'sirini tahlil qiladi. Innovatsiyalar, texnologik rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va korxonalar orasidagi aloqa tizimlari kabi muhim omillar iqtisodiy samaradorlikni oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni rivojlantirish uchun tavsiyalar ko'rsatiladi.

Maqola ishlab chiqarish sohasidagi omillar va ularning iqtisodiy samaradorlikga ta'sirini tahlil qilib, iqtisodiy rivojlanish va korxonalar uchun strategik maslahatlarni taklif etadi. Shuningdek, ishlab chiqarish sohasidagi global tendentsiyalar va yangiliklar haqida ma'lumot berib, ularni amalga oshirish uchun yechimlar va ilmiy yondashuvlar keltiriladi.

Bu maqola ishlab chiqarish sohasidagi omillar va ularning iqtisodiy samaradorlikga ta'siri haqida tahlil qiladi. Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, innovatsiyalar, xizmatlar sotishining o'sishi va korxonalar orasidagi aloqa tizimlari kabi muhim omillar iqtisodiy samaradorlikni oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni rivojlantirish uchun tavsiyalar ko'rsatadi.

Maqola ishlab chiqarish sohasidagi omillar va ularning iqtisodiy samaradorlikga ta'sirini tahlil qilib, innovatsiyalar, texnologik rivojlanish, xizmatlar sotishining o'sishi va ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi kabi muhim faktorlarni ko'rsatadi. Maqola ilmiy tadqiqotlar va



strategik maslahatlarga asoslangan tavsiyalar orqali ishlab chiqarish sohasidagi omillarni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Kalit soʻzlar : Milliy iqtisodiyot, sanoat ishlab chiqarish korxonalari, raqobatbardoshlik indeksi koʻrsatkichlari, tadbirkorlik qobiliyati, korxonona personal, kommunikatsiya samaradorligi.

Asosiy qism: Bozor bahosi koʻplab omillarga, shu jumladan asosiy omil sifatida koʻrib chiqiluvchi axborotga bogʻliq. Shu tariqa, bozorning samaradorlik darajasi axborotni baholarga taʼsir etish tezligiga bogʻliq holda oʻzgaradi. Bunda iqtisodiy samaradorlik emas, axborotning samarasi tushuniladi. Bozordagi axborotni olishda uning barcha ishtirokchilari birdek imkoniyatga ega emas. Xalqaro amaliyotda simmetrik va assimmetrik axborotlar mavjud. Birinchi holatda axborotdan barcha foydalanishi mumkin va bu hech qanday afzalliklarni bermaydi; ikkinchi holatda axborotdan faqatgina bozorning muayayn ishtirokchilari foydalanishi mumkin va bu ularga maʼlum afzalliklarni beradi.

Bozor samaradorligining uch darajasi mavjud: past, oʻrta va yuqori. Samaradorlikning past darajasi aksiyalarning joriy bozor baholari oʻtgan davrlardagi bahoiar dinamikasini toʻliq aks ettirilishini bildiradi. Samaradorlikning oʻrtacha darajasi aksiyalarning joriy bozor baholari faqat oʻtgan davrlardagi bahoiar dinamikasigina emas, balki barcha foydalanish imkoniyatiga ega boʻlgan axborotlarni ham toʻliq aks ettirilishini bildiradi. Samaradorlikning yuqori darajasi aksiyalarning joriy bozor baholari oʻtgan davrlardagi bahoiar dinamikasini, shuningdek, barchaga maʼlum va cheklangan axborotlamigina emas, ham aks ettiradi. Shunday qilib, axborotlardan barcha ishtirokchilar foydalanish imkoniyatiga ega boʻlsa-da, hech biri ortiqcha daromad olish imkoniyatiga ega boʻlmaydi.

Korxonalar xoʻjalik faoliyatining uzluksizligini taʼminlash, ularda ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish samaradorligini oshirish va shu kabi iqtisodiy barqarorlik koʻrsatkichlarning yuqori boʻlishida korxonalarda faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlar va xizmatchilar vazifalarining va ish jarayonlarining yuqori saviyada tashkil qilinganligi, ularning mexnatini moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirish tizimini yaratilishi alohida ahamiyatga ega. Korxonalar va ularning ishchi xodimlari oʻrtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil qilinishi yuqoridagi maqsadlarga erishishda va mexnat resurslaridan oqilona foydalanishda dolzarb hisoblanadi. Korxonalarda ishchi xodimlar oʻrtasida. olingan daromad yoki foydani bir qismini taqsimlash, ish haqlari va mukofot pullarni toʻlash, agar maʼlum turdagi qimmatli qogʻozlarga ega boʻlsa ular boʻyicha dividendlarni toʻlash, moddiy yordam



ko'rsatish hamda korxonalar faoliyatiga moddiy va ma'naviy zarar etkazsa, ushbu zarar miqdorini qoplash, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha tegishli soliqlarni ushlab qolish va shu kabi jarayonlar natijasida moliyaviy munosabatlar yuzaga keladi

Korxonalarda moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etilishi ko'p jihatdan tahlil ishlarini aniq va to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir, uning yordamida korxonalar to'lov imkoniyati, likvidligi va moliyaviy barqarorligini, barcha moliyaviy-xo'jalik jarayonlarining sodir bo'lishi va hodisalarni davriy kuzatish, umuman moliyaviy-iqtisodiy holatini baholash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Tahlil yordamida korxonaning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan kamchiliklar aniqlanadi va ushbu kamchiliklar bartaraf etiladi, xo'jalik subyektini yanada rivojlantirish yo'llari belgilanadi yoki samarali ishlashni ta'minlaydigan yo'nalishga o'tkaziladi.

Rejalashtirish moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Rejalashtirish funksiyasi mavjud resurslar hamda ularning chegaralanganligini inobatga olgan holda korxonaning maqsadlariga erishish yo'larini belgilashdan iborat. Ishlab chiqarishni bozordagi holatga mos kelishini o'rganish, barcha turdagiresurslar va kapitaldan samarali foydalanishni eng maqbul yo'llarini tanlash, qo'shimcha moliyaviy mablag'lar jalb qilish yo'larini izlab topish va shu kabilar rejalashtirish funksiyasiga misol bo'la oladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish funksiyasining muhim jihati shundaki, bunda korxonalar xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bozordagi holatdan kelib chiqqan holda, mazkur tovar va xizmatga bo'lgan talab va taklifning qay holatda ekanligi, raqobatning darajasi vashu kabi omillarga bog'liq holda belgilanadi. Pvejalashtirish bevosita tahlil bilan bog'liq bo'lib, asosan uning yakuniy natijalariga qarab aniqlanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday xo'jalik subyektlarining o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini samarali amalga oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishda ushbu korxonalar, firma va kompaniyalarda faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarda rag'batlantirishni amalga oshirish jarayonida, korxonalar boshqaruv tizimining turli bo'limlarida faoliyat yuritayotgan hodimlarning korxonalar tomonidan belgilangan moliyaviy rejalarni, vazifalar va yuklarni to'liq bajarganligi, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shgan hamda mavjud moddiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalangan holda ishlab chiqarish hajmini oshirganliklari uchun ushbu hodimlarni rag'batlantirish va mukofotlash yoki



aksincha, ushbu vazifalarni amalga oshirishda sustkasblikka yo'l qo'ygan va befarqlik bilan yondashgan xodimlarga nisbatan ma'lum bir choralar ko'rish, tizimi yaratiladi.

Moliyaviy menejmentning rag'batlantirish funksiyasini to'g'ri tashkil etilishi, korxonada mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilanishiga, xodimlar malakasining oshishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida, bevosita korxonada xo'jalik faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat funksiyasining mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin: korxonada belgilangan reja ko'rsatkichlarini haqiqatda qay darajada amalga oshirilayotganligi yoki bajarilmayotgan bo'lsa bunday holatlarni o'z vaqtida aniqlash, hamda ushbu holatlarni paydo bo'lish sabablarini batafsil o'rganish va bunday kamchiliklarni bartaraf etishda tezkor choralar ko'rishdan iborat. Moliyaviy menejmentning ushbu funksiyasini amalga oshirilishi korxonalarda ichki nazoratning tashkil qilish tizimi, nazorat qilinadigan ko'rsatkichlarning ko'lamini aniqlash bilan bogliqdir.

Moliyaviy menejmentning keyingi guruh funksiyalari uning alohida boshqaruv faoliyati xususiyatlarini tasniflaydi. Uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- aktivlarni boshqarish;
- kapitalni boshqarish;
- investitsiyalarni boshqarish;
- pul oqimlarini boshqarish;
- moliyaviy risklarni boshqarish.

Aktivlarni boshqarish. Korxonalar xo'jalik faoliyatining xajmi va amalga oshirilayotgan operatsiyalar ko'lamidan kelib chiqqan holda uning turli hildagi aktivlarga bo'lgan talabini aniq o'rganish. Korxonada aktivlaridan samarali foydalangan holda ularning tarkibini optimallashtirish va likvidligini ta'minlash, amortizatsiya hisoblashning eng maqbul yo'larini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularni moliyalashtirishni optimal yo'llari va manbalarini tanlash, aktivlarni boshqarish funksiyasining mohiyatini ifodalaydi.

Kapitalni boshqarish. Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonada o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda moliyaviy resurslarni optimal yo'llarini izlab topish va ulardan samarali foydalanishi talab etiladi. Korxonaning hozirgi va kelgusidagi faoliyat turlarini amalga oshirishda foydalaniladigan moliyaviy resurslar bilan; ta'minlash, kapitalni boshqarish funksiyasining mohiyatini ifodalaydi. Bu asosan korxonaning kapitalga bo'lgan jami talabini o'rganish va ulardan samarali foydalanish, moliyalashtirishning eng maqbul



yo'llari va manbalarini aniqlash, qayta moliyalashtirish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa : Ishlab chiqarish jarayonida barcha omillar harakatda bo'ladi, lekin ular ichida jonli mehnat, ya'ni ishchi kuchi faol bo'lib, u barcha ishlab chiqarish vositalarini harakatga keltiradi, ularga «jon kiritadi», asosiy kapital qiymatining yo'qolib ketmasligini ta'minlab, yangi yaratilgan tovar va xizmatlarga o'tkazadi. Va nihoyat, bu jarayonda yangi tovar va xizmatlar vujudga keladi.

Yangi vujudga kelgan tovar va xizmatlar ikki xil xususiyatga – naflilik va qiymatga ega bo'lib, ikki tomonlama hisobga olinadi: natural-ashyoviy (naflilik) tomonidan va qiymat tomonidan. Natural-ashyoviy tomondan u uch qismga: ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari va turli xizmatlarga bo'linadi. Qiymat tarafidan ham uch qismga: iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati (s), zaruriy mahsulot qiymati (v) va qo'shimcha mahsulot qiymati (m)ga bo'linadi.

Bundan 100 yil ilgari marjinalistlar tomonidan kashf qilingan va iqtisodiyotning universal qonuni deb atalgan qonun – «keyingi qo'shilgan omil (qo'shilgan kapital, qo'shilgan mehnat) unumdorligining pasayib borish qonuni» ko'r-ko'rona isrofgarchilikka, ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yilmasa, hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti sharoitida amal qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi —Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risidagi PQ-843-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 8 maydagi 210-sonli —Baholash faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining birinchi I.A.Karimov O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. «O'zbekiston» 1995 y.

Internet saytlari

1. <http://www.press-service.uz> (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali).
www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti).
www.gki.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi).
2. www.rmm.uz (—Respublika mulk markazi YoAJning sayti).
3. www.sion.uz (Ko'chmas mulk agentligi)
4. www.wikipedia.ru (Ma'lumotlar qidiruv portali)
5. www.profocenka.ru (ЗАО —Профессиональные оценки и экспертизы)